Etnomadaniy turizm tushunchasi va uning mazmun-mohiyati.....	905
Qilichova Orzigul Zafar qizi	
Пути адаптации международных требований к капиталу в страховом секторе Узбекистана.....	910
Эргашева Фарангиз Шерзод кизи	
Tijorat banklarida raqobatbardoshlikni belgilovchi omillar va ularning ta'siri tahlili	916
Shamsiyev Nurbek Fazliddin o'g'li	
Tijorat banklarida muammoli investitsion kreditlarning yuzaga kelish sabablari va ularni bartaraf etish yo'llari	921
Melikov Otabek Maxmadaminovich	
Tanlangan xalqaro mehmonxona tizimining boshqaruv uslubini tahlil qilish (Hilton mehmonxona tarmog'i misolida).....	926
G'olibjon Abdiraxmanovich G'aniyev	
Sug'urta tashkilotlarida ichki audit xizmatini tashkil etish masalalari.....	935
Abduraimova Maftunaxon Axmatovna	



SUG'URTA TASHKILOTLARIDA ICHKI AUDIT XIZMATINI TASHKIL ETISH MASALALARI

Abduraimova Maftunaxon Axmatovna

TDIU, "Audit" kafedrasi dotsenti, PhD.

Annotatsiya: Ushbu maqolada sug'urta tashkilotlarida ichki audit xizmatini tashkil qilish va bundan keladigan samaradorlik natijasi, erishiladigan yutuqlar haqida fikr yuritiladi. Sug'urta tashkilotlarida ichki audit xizmatini tashkil qilish sug'urta bozorini raqamlashtirish jarayonlarida ayniqsa muhim ekani keltirib o'tilgan. Ichki auditning asosiy vazifasi – boshqaruv tomonidan taqdim etilgan moliyaviy hisobotlarning haqqoniyligini hamda risklarni daromadlilik darajasi bilan o'zaro bog'liq holda tahlil qilish, sug'urta faoliyati samaradorligini oshirish maqsadida dasturiy mahsulotlar sifatini huquqiy jihatdan tekshirish va uni takomillashtirish yuzasidan takliflar tayyorlashdan iborat. Shuningdek, ichki audit xizmatini joriy etish jarayonida korporativ boshqaruvning zamonaviy tizimini ta'minlash, xalqaro standartlardan foydalanish hamda biznes jarayonlarini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: Sug'urta tashkiloti, ichki audit, ichki nazorat, korporativ boshqaruv, firibgarlik va xato, xalqaro audit, ichki audit standarti.

Abstract: This article examines the organization of internal audit services in insurance companies, highlighting their effectiveness and potential achievements. It emphasizes that establishing an internal audit system is particularly important in the context of digitalization of the insurance market. The main tasks of internal audit include verifying the reliability of financial statements presented by management, analyzing risks in relation to profitability levels, and conducting legal assessments of software quality with subsequent recommendations for improvement. Furthermore, the article discusses the importance of ensuring a modern system of corporate governance, applying international standards, and providing practical recommendations aimed at enhancing business processes in insurance organizations.

Key words: Insurance company, internal audit, internal control, corporate governance, fraud and error, international audit, internal audit standard.

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы организации службы внутреннего аудита в страховых организациях, а также результаты, эффективность и достижения, которых можно достичь благодаря её внедрению. Отмечено, что создание внутреннего аудита в страховых организациях особенно важно в условиях цифровизации страхового рынка. Основными задачами внутреннего аудита являются проверка достоверности финансовой отчетности, представленной руководством, анализ рисков в увязке с уровнем доходности, а также юридическая экспертиза качества программных продуктов с последующим представлением рекомендаций по их совершенствованию. Кроме того, подчеркивается значимость внедрения современных систем корпоративного управления, применения международных стандартов и выработки предложений по улучшению бизнес-процессов.

Ключевые слова: страховая организация, внутренний аудит, внутренний контроль, корпоративное управление, мошенничество и ошибка, международный аудит, стандарт внутреннего аудита.

KIRISH

Respublikada amalga oshirilayotgan keng sonli islohotlarning zahirida albatta, milliy iqtisodiyot va uning tarmoqlarini zamonaviy ko'rinishga keltirish va natijada yuqori daromad olish maqsadi turadi. Bu esa o'z navbatida, ishlab chiqarish va iqtisodiy munosabatlarni rivojlanib borishida boshqaruv faoliyatining yangicha usullarini joriy qilish kerakligini talab qiladi.

Ichki audit xizmatining zaruriyati yirik korxonalar, aksiyadorlik jamiyatlari va ijtimoiy ahamiyatga ega tashkilotlari uchun ular bilan bog'liq bo'lgan muammolarni, jumladan, xarajatlarni qisqartirish ustidan nazorat qilish nuqtai nazaridan ham ahamiyatga molik hisoblanadi. Sug'urta tashkilotlarining rahbarlari ish tartibini belgilaydi va ishlab chiqadi. Lekin, xodimlar turli sabablarga ko'ra belgilangan tartibga rioya etmaydi. Shu sababli hududiy bo'linmalarda yo'l qo'yilgan kamchiliklarni o'z vaqtida aniqlay olishmaydi. Ichki audit xodimlari ish jarayonida yo'l qo'yiladigan turli xatoliklar, suiiste'molliklarni oldini olishda menejerlarga yordam beradi.

Sug'urta tashkilotlarida ichki audit xizmatini tashkil etish faoliyatning barcha sohalarini chuqur o'rganish, riskni to'g'ri talqin qilib uni baholash, shuningdek, ularni minimallashtirish bo'yicha takliflar berish imkoniyatini beradi.



Shu o'rinda alohida ta'kidlab o'tish lozimki, tashkilotlarda ichki audit xizmatini tashkil etishda ba'zi bir talablar qo'llaniladi va ular quyidagilardan iborat:

1. aktivlarining balans qiymati 1 mlrd. so'mdan ko'p bo'lgan korxonalarda;
2. aktivlarining balans qiymati bazaviy hisoblash miqdorining 100 ming karasidan ko'proq bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlarida bo'lishi shart [1].

Albatta aytib o'tish lozimki, ichki audit xizmati ayniqsa, sug'urta tashkilotlari uchun juda ham kerakli hisoblanadi. Chunki sug'urta tashkilotlari ko'p tarmoqli hisoblanib, hudud jihatdan keng tarqalgan, mamlakatning barcha hududlarida bo'linmalari mavjud va mustaqil qaror qabul qilish xususiyatiga egadir. Bu holatda sug'urta tashkilotlarida tashkil qilingan ichki audit xizmati korporativ boshqaruv tizimiga muhim axborotlarni yetkazib berish va shu asosida qarorlar ijrosini ta'minlash bazasi sifatida qaraladi.

Sug'urta bozorini raqamlashtirish ishlari davom etayotgan bir paytda ichki audit xizmatiga nisbatan, nazoratning zarur elementi, boshqaruvning tarkibiy qismi, shuningdek, sug'urta tashkilotlarining moliyaviy holati va ular tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini baholash, sug'urta bozoriga bo'lgan talabni aniqlash, umuman olganda, sug'urta tashkilotlarida tashkil qilinadigan ish samaradorligini oshirishda amaliy yordam berishga xizmat qiladi, deb aytish mumkin.

Sug'urta tashkilotlarida boshqaruv tizimi uchun ichki audit faoliyatini takomillashtirishning zarurligi va afzallik jihatlari quyidagilar bilan izohlanadi:

- tashqi auditga ishonchli manba;
- qonunchilikka doimiy rioya qilinishining kafolatlanishi;
- ichki audit orqali tashkilot bo'linmalaridagi yuqori malakali mutaxassislarining tekshiruvga jalb qilinishi;
- ilg'or texnologiyalar va ish uslubini joriy etishni rag'batlantirishga ko'mak beruvchi tizim ekanligi.

Bozor munosabatlari sharoitida ichki audit tizimi yo'nalishi va usuliga ko'ra ikki xil vazifani bajarishi lozim:

- Faoliyat natijalarini baholash;
- Faoliyat samaradorligini baholash.

Ichki audit xizmati xo'jalik operatsiyalarini baholash usulida amalga oshiriladi. Ushbu yo'nalishda ichki auditning vazifasi sug'urta tashkilotining faoliyatini ishonchliligi va barqarorligi, mulkdorlar kapitalining daromadliligini baholash, shuningdek, sug'urta risklarini inobatga olgan holda auditdan maqsadli va tizimli foydalanishdan iboratdir.

Ichki audit xizmatining eng katta yana bir maqsadi bu faoliyat samaradorligini baholash bo'lib, bu o'z navbatida quyidagilarga bo'linadi:

- Sug'urta tashkilot faoliyat ko'rsatayotgan iqtisodiy muhitni tahlil qilish va baholash;
- Tahlil qilishda tekshiruvning maqsad va uslublarini aniqlash, moliyaviy ahvolini baholash va rivojlantirish dasturlarini amaliyotga tadbiq qilish masalalariga alohida ahamiyat beriladi.

Ichki auditning asosiy vazifasi – sug'urta tashkilotlarida boshqaruv tomonidan taqdim etilgan moliyaviy hisobotlarning haqqoniyligini hamda risklarni daromadlilik darajasi bilan o'zaro bog'lagan holda tahlil qilish, sug'urta faoliyati samaradorligini amalga oshirish maqsadida dasturiy mahsulotlar sifatini huquqiy jihatdan tekshirish va uni takomillashtirish yuzasidan takliflarni tashkilot boshqaruviga taqdim etishdan iborat.

Sug'urta tashkilotlarida joriy etilgan ichki audit tizimining to'g'ri tashkil etilganligini baholash turli risklardan himoya qilinganlik darajasiga, uning samaradorligiga ta'sir ko'rsatadi. Sug'urta tashkilotlari ichki audit tizimi qanchalik takomillashgan bo'lsa, boshqaruv tomonidan qabul qilingan qarorlar ijrosining samarasi shuncha yuqori bo'ladi. Ushbu tizimdagi uzilish esa tashkilotning moliyaviy holatiga to'g'ridan-to'g'ri salbiy ta'sir qiladi.

Sug'urta tashkilotlarida boshqaruv faoliyatini baholash jarayonida tashkilotning boshqaruv sifatini baholash va uni takomillashtirishga oid takliflar tayyorlanadi. Shuningdek, auditning samarali usullarini qo'llash, auditorlik dalillarini olish, tekshiruvning avtomatik usullarini rivojlantirish vazifalari maqsad qilib qo'yiladi. Shu bilan bir qatorda, ishlab chiqilgan audit strategiyasi, tashkilotda auditorlar faoliyatining qat'iy tartibga solinganligi, auditorlik tekshiruvlarining sifatini nazorat qilishga yo'naltirilganligidir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Shuni alohida qayd etib o'tish lozimki, hozirgi kunda sug'urta bozorini rivojlantirish, sug'urta faoliyatining samaradorligini oshirish maqsadida ko'pgina ilmiy va amaliy ishlar qilinmoqda. Buning natijasida iqtisodiy tarmoqlarda anchagina o'zgarish yuz bermoqda, xususan, tarmoqlarni raqamlashtirish, mijozlarga har tomonlama qulayliklar yaratish maqsadida amalga oshirilayotgan ishlar eng ko'zga ko'rinarli natijalar desak mubolag'a bo'lmaydi. Demak, sug'urta faoliyatini tubdan o'zgartirish maqsadida quyidagi olimlar tomonidan ilmiy ishlar jamlanmasi bajarilmoqda:

Janina MühlNickel, Gregor N.F. Weiß (2015) – Sug'urta tashkilotlarida yoki umuman barcha iqtisodiy subyektlarda xarajatlarni minimallashtirishga qaratilgan shartnoma tuzish amaliyotlari konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Shundan kelib chiqib, sug'urta tashkilotlari soni va turi mavjudligiga ichki audit xizmati bevosita bog'liq bo'ladi [2].



Iqtisodchi olim Yigit Bora Senyigit (2012) – Sug'urta tashkilotlari uchun tuziladigan moliyaviy hisobotlarning uyg'unlashtirilishini rivojlantirish har jihatdan xalqaro standartlar bilan bog'liq bo'ladi. Turkiyada faoliyat olib borgan sug'urta tashkilotlari jahon moliyaviy bozorida raqobatlashayotganligi sababli ular uchun MHXSning so'nggi o'zgarishlarini tushunish muhim ahamiyat kasb etadi [3].

V.P. Suyts, A.N. Axmetbekov, T.A. Dubrovina (2002) ta'kidlaganidek, ichki audit – bu tashkilotda amalga oshiriladigan faoliyatni uning manfaatlarini ko'zlab tekshirish va baholash bo'yicha mustaqil faoliyat turidir [4].

G.A. Yudina, M.N. Chernyx (2009) esa, korxonaning o'z mutaxassislar tomonidan amalga oshiriladigan ichki audit tashqi audit usullaridan foydalangan holda amalga oshiriladigan xo'jalik ichidagi nazoratni o'zida namoyon etishini qayd etadi [5].

Professor Sh.I. Ilxamov ichki auditni xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy-xo'jalik faoliyati samaradorligini oshirish imkoniyatlarini aniqlashning eng qulay vositalaridan biri sifatida ta'riflaydi. Unga ko'ra, ichki audit korxonaning raqobat jihatdan ustunligini ta'minlashga xizmat qilishi mumkin [6].

Prof. Romena Sulce, prof. A.Z. Avlokulov, PhD N.Sh. Abdievalar esa, ichki auditni ko'p funksiyali audit deb, bir vaqtning o'zida kompaniya rahbariyatining "o'ng qo'li" sifatida ko'rish mumkinligini ta'kidlaydi. Unga ko'ra, ichki audit xizmati hisob-kitoblarni tekshiradi, firibgarlik va xatolarni oldini oladi, tashkilotning ichki nazorat tizimi ma'lumotlarini tahlil qiladi [7].

Prof. S.U. Mehmonov budget tashkilotlari xususiyatlariga alohida e'tibor qaratgan holda, ichki auditga quyidagicha ta'rif bergan:

"Ichki audit – tashkilot tomonidan smetalarni tuzish hamda ijrosini amalga oshirishda qonunchilik hujjatlariga rioya qilinishini tekshirish va monitoring olib borish yo'li bilan nazorat qilish, moliyaviy hisobot ma'lumotlarining ishonchligini ta'minlash, budget-smeta intizomiga rioya qilish, mablag'larni maqsadli va oqilona sarflashga yo'naltirilgan faoliyatdir" [8].

Ichki auditorlarning xalqaro instituti (The Institute of Internal Auditors) ta'rifiga ko'ra, ichki audit – korxona faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan mustaqil va xolis kafolatlar hamda maslahatlarni beruvchi faoliyat yig'indisidir. Ichki audit korxonaga risklarni boshqarish, nazorat va korporativ boshqaruv jarayonlarining samaradorligini oshirish, tizimlashtirilgan va izchil yondashuvni qo'llash orqali qo'yilgan maqsadlarga erishishda yordam beradi [9].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Sug'urta tashkilotlarida ichki audit xizmatini tashkil qilish masalalari doim e'tibor markazida bo'lishiga qaramasdan aytish lozimki, bugungi kunda tashkil qilinayotgan "kuchli ichki audit" xizmati amaliy jihatdan qoniqtirmaydi. Shunday bo'lsada, sug'urta tashkilotlarida ichki audit xizmatini samarali yo'lga qo'yish maqsadida, avvalo, xalqaro standartlarga murojaat qilish va pirovardida tashkil etishning yo'nalishlarini amalga oshirish, olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarni amaliyotga joriy qilish, iqtisodiyotni zamonaviy rivojlantirishga erishish, jahon hamjamiyatida o'z o'rniga ega bo'lish va raqobat qila oladigan ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, sanoat sohasida mahsulotlarni dunyo amaliyotiga taqdim etish kabi ishlar ko'lamini oshirishga xizmat qiladi.

Korporativ boshqaruv tizimini to'g'ri yo'lga qo'yib, tashkilot moliyaviy barqarorligini oshirish, xarajatlarni optimal boshqarish, biznes-reja bajarilishini to'g'ri tashkil qilish jarayonlari o'z-o'zidan ayonki, ichki auditga borib taqaladi.

Sug'urta tashkilotlarida ichki audit xizmatini tashkil qilish yo'nalishlarini ochib berishda keng sonli tahlil usullaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Sug'urta tashkilotlarida ichki audit xizmatini tashkil qilish yo'nalishlarini ochib berishda qo'llanilgan tahlil usullari, albatta, ilmiy maqolaning mazmun-mohiyatini ochib, uning sifatini oshirishga xizmat qiladi, ushbu tadqiqotga oid taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tahlil va natijalar muhokamasi

Sug'urta tashkilotlarida ichki audit xizmatini tashkil qilish orqali:

Birinchidan, sug'urta faoliyatining ichki tuzilishi, ichki muhiti, boshqaruv uslubi, qarorlar qabul qilish jarayoni, vakolatlarni taqsimlash, mas'uliyatni qabul qilish kabi jarayonlar jadallashadi.

Ikkinchidan, kunlik, oylik, choraklik va yillik nazorat qilish shakllari ta'minlanib, ularni alohida hisoblarda yuritish va hisobotlarda jamlash orqali aks ettirish, sug'urta tashkiloti moddiyliklarini boshqarish va doimiy monitoring o'tkazib turish imkoni paydo bo'ladi.

Uchinchidan, sug'urta tashkilotida uchrashi mumkin bo'lgan ehtimoli yuqori risklarni ham aniqlash va tahlil qilish bo'limining faoliyat yuritishi mumkinligi.

To'rtinchidan, axborotdan foydalanish tizimida yagona ma'lumotlar bazasi shakllanib, bu ma'lumotlar tashqi audit va boshqa tekshiruv organlari uchun eng ishonchli ma'lumot hisoblanadi.

Beshinchidan, sug'urta tashkilotida ichki nazorat tizimining samaradorligini oshirish maqsadida, ichki audit tizimi xodimlar faoliyatini tezkor nazorat qilish va ularning ishini davriy baholashni amalga oshirishi mumkinligi bilan izohlanadi.



Ichki audit xizmatini tashkil qilish har tomonlama qulayliklarni yaratib beradi, deb aytish mumkin. Xalqaro audit standartida keltirilishicha, tashqi audit ko'p hollarda ichki auditga murojaat qilishi mumkin:

1. Tashqi auditor ichki audit xizmatining ushbu xizmat ishiga tegishli bo'lgan va tashqi auditor ichki auditorlar tomonidan bajarilgan auditorlik tartib-taomillarining xususiyati va ko'lami, tegishli topilgan natijalarni tushunishi uchun foydalanishni rejalashtirgan hisobotlari bilan tanishib chiqish maqsadida;

2. Tashqi auditor ichki audit xizmati ishi yuzasidan, umuman olganda, ushbu ishning audit maqsadlariga mosligini aniqlashda qo'llashni rejalashtirgan yetarlicha auditorlik tartib-taomillarini bajarishi, shu jumladan quyidagilarni baholashi kerak bo'lganda.

3. (a) Ichki audit xizmati ishi to'g'ri rejalashtirilganligi, bajarilganligi, nazorat qilinganligi, ko'rib chiqilganligi va hujjatlashtirilganligi;

(b) Ichki audit xizmati asoslangan xulosalar chiqarishi uchun yetarlicha tegishli auditorlik dalillari olinganligi;

(v) Chiqapilgan xulosalar berilgan shart-sharoitlarda to'g'ri ekanligini va ichki audit xizmati tomonidan tayyorlangan hisobotlar bajarilgan ish natijalariga mos ekanligini bilish maqsadida foydalaniladi [10].

4. Yuqorida ham ta'kidlab o'tilganidek, sug'urta tashkilotida ichki audit xizmatini tashkil qilish, avvalo, sug'urta bozorini o'rganish va mijozlarga sifatli xizmat ko'rsatish maqsadida sug'urta muhitini barqarorlashtirishdan iboratdir.

5. Xalqaro amaliyotda sug'urta faoliyatiga aloqador bo'lgan quyidagi standartlar mavjud bo'lib, ichki auditorlar shular yuzasidan hisob ishlarini standart talablariga muvofiqligini tekshiradi:

1-jadval. Sug'urta tashkilotlarida foydalaniladigan moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari va ularning ko'lami¹

MXXC (IFRS) №	Standart nomi	Foydalanish ko'lami
4-sonli	Sug'urta shartnomalari	Sug'urta xizmatlarini ko'rsatish maqsadida ishlatiladi
7-sonli	Pul mablag'lari harakati to'g'risidagi hisobot	Sug'urta tashkiloti mukofotlari va to'lovlari, annuitetlar uchun to'lovlar, sug'urta polisi bo'yicha boshqa to'lovlarda foydalaniladi
8-sonli	Hisob siyosati, hisoblab chiqilgan baholardagi o'zgarishlar va xatolar	Sug'urta kompaniyalarning hisoboti va to'lov tartibi nazarda tutiladi
18-sonli	Daromadlar	Sug'urta qiluvchilarning jalb qilinishi xarajatlarning tan olinishi qo'llaniladi
19-sonli	Xodimlarning daromdlari	Pensiya uchun mo'ljallangan to'lovlarni amalga oshirish uchun sug'urta mukofotlarini to'lash asosiy ko'rib chiqiladi
32-sonli	Moliyaviy instrumentlar: taqdim etish	Moliyaviy aktivlar hamda moliyaviy majburiyatlarning tan olinishi va baholanishi jarayonini o'z ichiga oladi
37-sonli	Rezervlar, shartli majburiyatlar va shartli aktivlar	Sug'urta shartnomalari ostida paydo bo'ladigan shartnomaviy majburiyatlar va huquqlardan yuzaga keladigan rezervlar, shartli majburiyatlar va shartli aktivlarga nisbatan ushbu standart qo'llaniladi
38-sonli	Nomoddiy aktivlar	Sug'urta-sug'urta turlari bilan bog'liq operatsiyalarni hisobga olish dasturiy ta'minotdan amalga oshirilishini aniqlaydi, buning xarajat kapitalizatsiyasiga tegishli. Chunki, tashkilotning moliyaviy natijalariga ta'sir qiladi, iqtisodiy ta'minotining muhim elementi hisoblanadi
39-sonli	Moliyaviy vositalar: tan olish va baholash	Investitsion shartnomalarda foydalaniladi, shuningdek, assotsiatsiyalangan moliyaviy aktivlar va moliyaviy majburiyatlar faol deb qaraladi
29-sonli	Gipertinflatsion iqtisodiyot sharoitida moliyaviy hisobot	Sug'urta tashkilotlari faoliyat yuritadigan davlatlarda xalqaro iqtisodiy baholash darajasidan yuqori inflyatsiya yuz bergan davrlarda ishlatiladi

1-jadval ma'lumotlari tashkil qilingan ichki audit xizmati uchun har qanday vaziyatda ham ish jarayonidan samarali foydalanish va korporativ boshqaruv yuzasidan tezkor qarorlar qabul qilish imkoniyatini taqdim etadi. Bu standartlardan foydalanib ish tashkil qilinganda ichki auditor tomonidan ortiqcha tahliliy amallarni qo'llash hisobiga ketadigan vaqt hajmi anchagina qisqarishiga sabab bo'ladi.

1 Tadqiqotlar natijasida muallif tomonidan ishlab chiqilgan

2-jadval. O'zbekiston Respublikasi sug'urta bozorining tuzilmasi²

T/R	Sug'urta bozorining tuzilmasi	01.01.2022	01.01.2023	O'zgarish % da
1	Sug'urta tashkilotlari soni	36	40	111%
2	Shundan hayot sug'urtasi bo'yicha	8	8	100%
3	Sug'urta tashkilotlarining umumiy ustav kapitali (mln. so'mda)	755 220	1 439 193	191%
4	Sug'urta brokerlari soni	5	5	100%
5	Aktuarilar soni	50	56	112%
6	Sug'urta agentlari soni	8 657	8 870	102%
7	Shundan yuridik shaxslar soni	2 388	2 637	110%
8	To'lovlarni kafolatlash jamg'armasi a'zolari bo'lgan sug'urta tashkilotlarining soni	17	19	112%

2-jadval ma'lumotlaridan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, O'zbekiston sug'urta bozorida sug'urta tashkilotlari soni kun sayin ortib bormoqda va tashkiliy tuzilma ommaviylashmoqda. Aytib o'tish lozimki, tashkiliy tuzilma kengayganda ichki audit xizmatiga bo'lgan talab ortib boraveradi. Natijada esa, turli katta operatsiyalar sodir bo'lib, sug'urta faoliyatini yanada jahon bozoriga integratsiyalashuviga zamin yaratiladi.

Jadval ma'lumotlariga e'tibor beradigan bo'lsak, sug'urta tashkilotlarining to'lov qobiliyatini yaxshilash maqsadida, ularning ustav kapitali bosqichma-bosqich oshirilmoqda. Lekin achinarli tomoni – sug'urta brokerlari va sug'urta aktuarilari sanoqli ekanligini ko'rishimiz mumkin. Agar sug'urta tashkilotlarida ichki audit xizmatini tashkil qilishning bir qancha yo'nalishlarini ishlab chiqsa, birinchi navbatda sug'urtada uchraydigan risklarni baholash imkoniyati yaratiladi, yuqorida uchraydigan kam sonli yuridik shaxslar faoliyatini muvofiqlashtirish va ularning sonini ko'paytirish imkoniyatiga ega bo'lamiz.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Sug'urta tashkilotlarida ichki audit xizmatini tashkil qilish hozirgi kundagi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Shuni ta'kidlash lozimki, sug'urta va audit sohasini birdek rivojlantirib, iqtisodiyot tarmog'ida yetarlicha o'sishga erishish mumkin. Sohani rivojlantirish uchun esa albatta, me'yoriy bazasini yaxshilash talab etiladi. Oxirgi yillarda chiqarilayotgan sug'urta va audit faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan huquqiy asos bu ikkita sohaning birdek potensialini ko'tarishga yordam bermoqda. Sug'urta biznesi sifatini oshirish uchun esa, albatta nazorat tizimi hisoblangan ichki audit xizmatini samarali yo'lga qo'yish lozim. Ichki audit xizmati sug'urta tashkilotlarining nazorat tizimini takomillashtirib, moliyaviy holatini barqarorlashtirishga yordam beradi.

Sug'urta tashkilotlarida faoliyat yuritadigan ichki audit xizmati bir qancha qulayliklarga ega, xususan: tashqi auditga nisbatan kam xarajat talab qilinadi, ichki auditorlar tashkilotning boshqaruv uslubidan xabardor bo'ladilar, tashkilot faoliyati va rivojlanishi uchun malakali mutaxassislarni jalb qilish imkoniyati mavjudligi, yangi texnologiyalardan keng foydalanish imkoniyati mavjudligi, sug'urta tashkilotida mavjud resurslardan samarali foydalanish mumkinligi.

Demak, yuqorida berilgan xulosalar natijasida quyidagi takliflarni berib o'tishimiz mumkin:

1. Sug'urta tashkilotlarida ichki audit xizmatini joriy qilish yo'nalishlarini ishlab chiqishda tashkiliy tuzilma xususiyatlarini e'tiborga olish kerak;
2. Sug'urta tashkilotlarida ichki audit xizmatini joriy qilishda elektron dasturlardan keng foydalanish va bu orqali tashkilotning filial va bo'limlarini nazorat qilish va boshqarish imkoniyati paydo bo'ladi;
3. Ichki audit standartlarini ishlab chiqish va ularning tadbiqini amalga oshirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Korxonalardagi ichki audit xizmati to'g'risida Nizom (O'zR VM 16.10.2006 y. 215-son qaroriga 2-ilova).
2. Janina Mühlhnickel, Gregor N.F. Weiß. Consolidation and systemic risk in the international insurance industry. Journal of Financial Stability. Volume 18, June 2015, Pages 187–202.
3. Yigit Bora Senyigit. The Implementation of IFRS in the Turkish Insurance Industry. Procedia - Social and Behavioral Sciences 62 (2012) 294–300. doi: 10.1016/j.sbspro.2012.09.048.
4. Audit: obshchiy, bankovskiy, strakhovoy. Uchebnik. V.P. Suyts, A.N. Axmetbekov, T.A. Dubrovina. – M.: Infra-M, 2002. – 627 s.
5. Yudina G.A., Chernyx M.N. Osnovy audita. Uchebnoe posobie. M.: KNORUS, 2009. – 352 s.
6. Ilxamov Sh.I. Xo'jalik yurituvchi subyektlarda ichki audit va uning samaradorligini baholash xususiyatlari. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. №1, yanvar-fevral, 2019 yil.

2 www.agros.uz ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan



7. "Xalqaro moliya va hisob" ilmiy jurnali. №5, oktyabr, 2021 yil. ISSN: 2181-1016.
8. Mehmonov S.U. Budget tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va ichki audit metodologiyasini takomillashtirish. Iqtisod fanlari doktori dissertatsiyasi. Toshkent, 2018. – 55 bet.
9. The Institute of Internal Auditors. <https://www.theiia.org>
10. Ichki auditorlar ishidan foydalanish nomli 610-sonli xalqaro audit standarti.
11. www.agros.uz sayt ma'lumoti.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
